


BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYATI
AXBOROT KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

Mahmudxo`ja Behbudiy
(1874-1919)

MA`RIFAT- OZODLIKDIR

Tavsiya ro`yxati



Andijon-2024

KIRISH

**“Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur.
Ilmsiz davlatni foydasi yo`q, ilmsiz dunyodorni
hayoti yo`q” .**

Mahmudxo`ja Behbudiy

XIX-asr oxirlari va XX-asr boshlarida Turkistonda “Jadidchilik yoki “Milliy uyg`onish davri” boshlandi. Professor Begali Qosimov bu davr xususiyatlarini o`rganib, shunday xulosaga kelgan edi : “Turkistonni savodli va ma`rifatli, to`q va farovon, ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo`lish jadidchilik xarakatining asosiy maqsad-vazifasini tashkil qilar edi”.

Bu davrga kelib jamiyatning eng ilg`or fikrli qatlamlari kurashlarini aks ettirgan milliy uyg`onish muayyan mafkura sifatida, birinchi navbatda, ma`rifatchilikda ko`rindi. Ana shunday mafkuraning jarchilari bo`lgan jadidlar esa keng miqyosli amaliy faoliyat bilan o`z g`oyalarining jamiyat hayotida qarort topishi, mustahkamlanishi va oxir-oqibat ular ko`zlagan milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurshlariga o`sib o`tishi uchun zamin yarata boshladilar. Bu butun Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri taraqqiyotida yangi bir bosqich edi.

O`tgan asrning boshlarida Mahmudxo`ja Behbudiy yurtimizdagi jadidchilik xarakatining yetakchilaridan biri bo`lgan. O`qimishli oilada tug`ilib, tarbiya topgani bois ko`p bilimlarni puxta egallagan va chorizm tuzumida mahalliy aholi uchun ilm, ma`rifat juda zarur ekanini anglab yetgan. Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakatida Mahmudxo`ja Behbudiy asosiy o`rinlardan birini egallaydi. U Turkiston ziyolilari, xorijdagi bunday harakat faollari bilan mustahkam aloqa o`rnatgan. Turkistonning birligi, mustaqilligi uchun kurashgan. Aniqrog`i, o`sha davrda ozodlik uchun kurashning yalovbardoriga aylangan.

“Ma`rifat - ozodlikdur” mavzusidagi ushbu bibliografik qo`llanma keng kitobxonlar ommasiga mo`ljallangan bo`lib, asosan Mahbudxo`ja Behbudiyning asarlari va ma`rifatparvar bu alloma haqidagi nashrlar ro`yxati yillar bo`yicha - xronologik tarzda taqdim etilgan.

HAYOTIDAGI O'Z MASLAK VA MAQSADINI TOPISH UCHUN INTILISHLARI

Mahmudxo`ja Behbudiy 1874-yilning 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida, (ayrim ma`lumotlarda esa 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog`ida) muftiy oilasida tavallud topgan. Otasi Behbudxo`ja Solihxo`ja o`g`li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo`ja urganchlik bo`lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785-yillar) Samarqandga ko`chib kelgan. Oiladagi muhit undagi ma`rifat va adabiyotga bo`lgan mehrini tezroq ro`yobga chiqishiga imkon tug`dirdi. Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi bo`yicha yirik mutaxassis bo`lib, bu borada ko`plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o`z navbatida Mahmudxo`jaga ta`sir o`tkazmay qolmadi. Mahmudxo`ja Behbudiy 6-7 yoshlarida tog`asi Muhammad Siddiq huzurida o`qib savod chiqaradi, shuningdek arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo`yicha bilim oladi. Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinchalik Buxoro madrasalarining birida tahsil olgan.

18 yoshida madrasa ta`limini tugatadi va Samarqand viloyati



Chashmaob qozixonasida mirzalik qiladi, qozi lavozimlarida ishlaydi. U shariat qonunlarini puxta o`zlashtiradi va mufti darajasiga ko`tariladi. 1893-yili onasi, 1894-yili otasi vafot etadi. Otasining vafotidan sal oldinroq uylangan Mahmudxo`ja 4 o`g`il va 1 qiz farzand ko`radi.

Yosh Mahmudxo`janing

dunyoqarashini shakllanishida Rossiya jadidchilik xarakatining asoschisi Ismoilbek Gaspiralining xizmati katta bo`lgan. Sharqu G`arbning tarix va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, frantsuz tillarida ham erkin gaplasha oladigan bu kishi 1881-yilda rus tilida “Rusiya musulmonligi” kitobini yozadi. 1884-yilda Ismoilbekning mashhur “Tarjumon” gazetasiga obuna bo`lgan 1000 kishining 200 tasi Turkistondan edi.

Gaspirali **1893** - yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, “usuli savtiya”ni joriy etish maqsadida Toshkentga keladi. Samarqand, Buxoroda bo`ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo`ladi. To`g`ri Gaspirinskiy tomondan ochilgan bu

maktablar g'ayrisha'riy sifatida mutaassiblar tomonidan yopildi. Lekin Ismoil Gaspirali va Mahmudxo'ja Behbudiy o'rtasidagi ustoz-shogird munosabatlari samimiy do'stlikka aylandi. Behbudiy o'z xotiralarida ustozini bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy horijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy nashrlar bilan tanishib boradi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi va Arabiston, Misr, Turkiyani kezib, sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikrini mustahkamlab bordi. "1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi", - deb yozadi Behbudiy bu haqda. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'ldi, keyinchalik Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. Dunyo ko'rishi beiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi.

O'sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashriyotlardan chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turdi. Ismoil Gaspirali va u bosh muharrir bo'lgan "Tarjumon" gazetasi Mahmudxo'ja Behbudiyni buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi darajasiga ko'tardi.

Katta zakovat va harortli qalb egalari bo'lgan bu harakat tashabbuskorlari turkiston xalqlarining boshi berk ko'chaga kirib qolganliklaridan chuqur tashvishga tushdilar. Ham chorizm, ham mahalliy amaldorlarning ikkiyoqlama zulmi ostida qolgan keng ommaning behad qashshoqligi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan haddan ziyod ortda qolganligi, madaniy qoloqlik, fikrlashdagi turg'unlik jadidlarda ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishning amaliy vositalarini izlash fikrini uyg'otdi. Ular xalqni ma'rifiy qoloqlikdan chiqarish uchun ta'limni islohotlarni dastlabki bosqichdagi asosiy masala qilib qo'yildi. Ular bu borada nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tomondan ham ko'p kuch-g'ayrat sarflashdi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o'quv zallari ochishdi, darslik va o'quv qo'llanmalari yozishdi.

MILLAT FIDOYISI

Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo`q deb o'ylayman.

Fayzulla Xo`jaev

Mahmudxo`ja Behbudiy XX-asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI-asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, jaholat va mutaassiblik avj pardasiga chiqqan, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni butunlay mahv bo'lish va Vatanni butkul g'orat etilishi xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoiylar zimmasiga tushadi.

Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloлга tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini singdirishga urindilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar.

Uning "Behuda sarflarga ketadigan harajatlarni ilmga sarflamoq kerakdir. Ilm bizning omilimiz, idealimiz, murodimiz, tilagimiz va muddaomizdir. Hozir barcha kuchni ilm olishga qaratmasak, zabun bo'lurmiz",- degan so'zlari hozirda ham dolzarb yangramoqda.

Mahmudxo`ja Behbudiy Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabamin qishlog'ida Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903-1904), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. Keyinchalik (1908-yilda) Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o'z hovlisiga qo'chirib keltiradi. Behbudiy 1911-yilda «Padarkush» dramasini yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda va 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi.

Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Nashr qilishga chor tsenzurasi yoʻl qoʻymaydi. “Padarkush” dramasi dastlab 1912-yilda “Turon” gazetasida bosilgan. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuotga boshladi. “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildiga “Borodino jangi va Rossiyaning frantsuzlar bosqinidan xalos boʻlishining yubiley sanasiga bagʻishlanadi” degan yozuv bilan Tiflis tsenzurasidan ruxsat olinadi. Bosilib chiqqandan keyin ham sahnaga qoʻyish uchun yaqin bir yil vaqt ketadi. Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (hozirgi savdo birjasi binosi)da oʻz faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlangan edi. Spektakl boshlanish oldidan Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi oʻrni haqida nutq soʻzlaydi. Bosh rolni A. Avloniyning oʻzi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi. “Turon” truppasi 1914—1916-yillarda bu spektakl bilan butun Fargʻona vodiysini aylanib chikdi. Bu bir tomondan millatni maʼrifat va taraqqiyot sari undashda katta ahamiyatga ega boʻlsa, ikkinchi tomondan professional oʻzbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. 1916-yilda Toshkentga kelib Kolizeyda “Turon”ning qator spektakllarini koʻrgan A. N. Samaylovich yozadi: “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi — Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxoʻja Behbudidir”.

Shu yil 20-avgustdan Behbudiy «Oyna» jurnalini chiqara boshladi.



FIGURE 7.3 First issue of *Ayina* (southern Central Asia).

Haftalik, suratli bu jurnal asosan oʻzbekcha boʻlib, sheʼr, maqola (forscha), eʼlonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afgʻoniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yoʻlga qoʻyadi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913).

Behbudiy 1914-yil 29-mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk,

Jelevnovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida boʻladi, 8-iyunda Istanbulga keladi. Undan Adanaga oʻtib, yana Istanbulga qaytadi va 20-iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. Soʻng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said, Shom shaharlarida boʻladi. Sayohat xotiralari «Oyna» jurnalida bosilib turadi. Bu «xotiralar» har jihatdan muhim boʻlib, anʼanaviy tarix-memuar janrining 20-asr boshidagi oʻziga xos namunasi edi. Muallif

unda yo'l taassurotlariga, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. «Oyna» jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq «Ikki emas, to'rt til lozim», degan maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan frantsuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi (Har millat o'z tili ila faxr etar), o'zaro munosabatlari (Til masalasi) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan teng huquqligi masalasini ko'tardi (Tanqid saralamoqdir). Millat sha'nini oyoqosti qiluvchi fikr-qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi (Sart so'zi majhuldur). Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega egadir.

MAHMUDXO`JA BEHBUDIY FAOLIYATI VAQTLI MATBUOT SAHIFALARIDA:

- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Xayrul umuri avsatuho” (1906)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Munozara” haqida” (1911)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Yoshlarg`a murojaat” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Ehtiyoji millat” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “A`molimiz yoinki murodimiz” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Sherdor madrasasi” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Turkiston” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Bayoni hol” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Ikki emas, to'rt til lozim” (1913)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Ismoilbek hazratlari” (1914)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Sart” so'zi ma'lum bo'lmadi”(1914)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Turkiston tarixi kerak” (1914)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Muhtaram yoshlarg`a murojaat” (1914)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Oh, bonkalar bizni barbod etdi” (1914)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Jaholat dardlaridan” (1914)
- Mahmudxo`ja Behbudiy. “Zo`raki boy” (1914)

Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Bizni hollar va ishlar" (1914)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Favqulodda takfir" (1914)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Teyotr nadur?" (1914)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Tanqid – saralamoqdur" (1914)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Tarixi ixtiroi bashar" (1914)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Sart so`zi majhuldur" (1915)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Bizni kemirguvchi illatlar" (1915)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Til masalasi" (1915)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Muhtaram samarqandiylar`a xolisona arz" (1917)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Qozoq qarindoshlarimizg`a ochiq xat" (1918)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "G`alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya" (1918)

Mahmudxo`ja Behbudiylar asarlari:

Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Tanlangan asarlar"
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Padarkush" (drama)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Oq yelpog`ichli chinli xotun" (hikoya)
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Bir a`mo bolaning hasrati"
Mahmudxo`ja Behbudiylar. "Kitobat al-atfol" (eski o`zbek yozuvida)

Behbudiylarning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, «hayoliy», «bu toifaga qo`shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik» deb yozgan edi («Xayrul umuri avsatuho» — «Ishlarning yaxshisi o`rtachasidir»).



1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo`layotgan bir paytda o`lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiylar ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg`in qo`shildi, musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga

qarshi chiqdi. Shu qurultoyda o`lka musulmonlar sho`rosining raisi etib saylandi.

Shu yilning 26-noyabrida Qo'qonda o'lka musulmonlarining favquloddagi IV-qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi **“Turkiston muxtoriyati”** e'lon qilindi. **Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'y ilgan jiddiy va jasoratli qadam edi.**



Uning ma'naviy otasi, shuhbasiz, Behbudiy edi. Biroq u Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19-20-fevral kunlari shahar to'pga tutildi. 10 ming turkistonlik o'ldirildi, 180 qishloqqa o't qo'yildi.

Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko'p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi. Albatta, Behbudiyning xalq o'rtasida ortib borayotgan obro'-e'tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarining ham reja va niyatlariga zid edi. Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida, 25-martda parishon holda yo'lga chiqadi va Shahrisabzda qo'lga olinib, taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlandi. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan zindon yakindagi "podsholik chorbog'i"da o'ldiriladi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandda rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ldi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.



XOTIRASI AZIZ INSON

Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: ***“Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o`zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma`rifat uchun kurashga chorlab keldi”.***

Fitrat, Cho`lpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiya atab marsiyalar yozganlar. O`zbekistonda (H. Sayid, N. Avazov, Z. Ahrorova), Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; B. Qosimov bilan hamkorlikda), AQSHda (E. Olvort) va boshqa mamlakatlarda Behbudi hayoti va ijodi bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishadi. Toshkent shahrida ko`cha va maktabga Behbudi nomi qo`yilgan Ulug` mutafakkirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e`tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937-yillarda Behbudi nomi bilan atalgan.

Mustaqillik yillari Allomaning “Saylanma” asarlari chop etildi. Alloma haqidagi qator-qator nashrlar chop etildi. Asarlari darslik va qo`llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko`cha va mahallalar uning nomiga qo`yildi. Buyuk ma`rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o`rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo`jand shahridagi gimnaziya Behbudi nomi bilan ataladi.

2020-yil O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudi hayotiga bag`ishlangan film premerasi bo`lib o`tdi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma`rifiy meros o`z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.



ADABIYOTLAR

Behbudiy asarlari:

1. Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар / М. Бехбудий. – Toshkent : Ma'naviyat, 1999. – 277 б.
2. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлд. 3-нашри / тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Бегали Қосимов. – Тошкент : Маънавият, 2006. – 280 б. (Истиқлол қаҳрамонлари)
3. Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар / М. Бехбудий. – Toshkent : Akademnashr, 2021. – 506 б.

Behbudiy haqidagi nashrlar :

4. Abdurashidov, Z. Mahmudxo`ja Behbudiy / Z.Abdurashidov. – Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2014. –154б.
5. Rahimov, M . O`zbekiston tarixi / M.Rahimov. – Toshkent: Fan , 2019. – 541б.
6. Тожибоева, М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масалалари / М. Тожибоева. –Тошкент : Mumtoz so`z, 2017. – 246 б.

VAQTLI MATBUOT NASHRLAR

7. Бехбудий асарларида касб ҳунар атамалари // Тил ва адабиёт таълими. – 2001. – № 6. – Б. 4-8.
8. Намозова, Н . Отамнинг қабрини қай ерга ёшурдинг ёки яна Махмудхўжа Бехбудий ва хамроҳларининг қабри хусусида / Н Намозова // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2004. –16 янв.
9. Химматқулов, Р. Маърифат парчаси / Р. Ҳимматқулов // Миллий тикланиш. – 2005. – 21 янв.
10. Сайид, Х. Бехбудий олдида қарздормиз / Х. Сайид // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2005. – 15 апр.
11. Қосимов, Б. Қалблардан ўчмаган шуур: Махмудхўжа Бехбудий таваллудига / Б. Қосимов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2005. – 21 янв.

12. Аҳмад, Сирожиддин. Бир сиёсий қотиллик тарих / Сирожиддин Аҳмад // Миллий тикланиш. – 2005. – 10 июнь.
13. Саид, С. Бехбудийнинг армонлари / С. Саид // Театр. – 2006. – № 1. – Б.7-8.
14. Саидов, Ҳ. Асл фарзанд / Ҳ.Саидов // Маърифат. – 2009. – 5 янв.
15. Олворт, Э. Биринчи ўзбек драмаси: [Бехбудийнинг “Падаркуш” асари хақида] / Э. Олворт // Жаҳон адабиёти. – 2009. – № 8. – Б. 107-113.
16. Каримов, Наим. Махмудхўжа Бехбудий / Н. Каримов // Тил ва адабиёт. – 2010. – № 4. – Б.36-52
17. Равшанов, П. Бехбудийнинг сўнгги манзили / П. Равшанов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2010. – 23 июль.
18. Аҳмад, С. Бехбудий режиссёр, Фитрат артист бўлганми? / С. Аҳмад // Театр. – 2013. – № 6. – Б. 8-10.
19. Аҳмедова, Н. Бирлашган ўзадими, тўзади?: [М. Бехбудий шогирди Ҳожи Муин хақида] / Н. Аҳмедова // Тафаккур. – 2014. – № 1. – Б. 114-118.
20. Эгамқулова, Н . Миллат фидойиси / Н. Эгамқулова // Жаҳон адабиёти. – 2014. – № 1. – Б. 62-65.
21. Фармонова, М. Жим юришимиз етар! / М. Фармонова // Жамият. – 2023. – 13 апр.
22. Сафаров, Х.Чордоқ ва қабристонларда яшириб сақланган китоблар жадид: куллийетида нималар ёзилган / Х. Сафаров // Жамият. – 2023. – 30 нояб.
23. Ҳамдам, Улуғбек. Ўзимиз ўтирган шохни кесмайлик / Улуғбек Ҳамдам // Жамият. – 2023. – 26 дек.
24. Ризаев, Ш. Жадидчилик нима? : уни нега ўрганиш керак / Ш. Ризаев // Jadidlar. – 2024. – 5 янв.
25. Саидов, А. Маърифат йўли /Акмал Саидов // Jadidlar. – 2024. – 5 янв. – Б.2
26. Аҳмад, Сирожиддин. Адабиёт, хушомад, таъмагирлик ва зулмкорликдан фориғ бўлсин / Сирожиддин Аҳмад // Jadidlar. – 2024. – № 4.

Ma'rifat- ozodlikdir / tuzuvchi :
O. Rasulova. – Andijon, 2024. –12 b.